

**YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN  
HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO‘G‘RISIDA HUQUQIY  
XULOSA**

BQ4744877008

1. Loyihaning turi : Shartnoma
2. Loyihaning nomi: **Quyosh paneli shartnomasi haqida.**
3. Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma'lumot: QUVASOY SHĀHAR XALQ TA'LIMI BO'LIMI tomonidan 12.10.2022 yilda kiritilgan.

Loyiha amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan va uni qabul qilish maqsadga muvofiq.

**Quvasoy shahar  
yuridik markazi  
bosh yuristkonsulti:**



**SH.T.TURSUNBOYEV**

12.10.2022

### Tovar-maxsulotlari, qurilish materiallari va boshqa maxsulotlar sotib olish

Quvasoy shahar XTB nomidan raxbar v.b K.Jadigarov bundan buyon bir tomondan "Xaridor" deb yuritiladi, nizom asosida xarakat qiluvchi, ikkinchi tomondan "Maxsus Energetik Aloqa" MCHJ nomidan raxbari A.A.Isakov nizomi asosida ish yurituvchi bundan buyon "Sotuvchi" deb yuritiladi va quyidagilar xaqida ushbu shartnoma tuziladi.

#### 1. SHARTNOMA MOXIYATI

1.1. «Sotib oluvchi» quyidagi maxsulotlarini yetkazib berish uchun buyuradi, «Yetkazib beruvchi» esa mazkur maxsulotlarni etkazib berish ishlarini bajaradi. Solnechnaya stansiya Quvvati 5.0-8.0 kVt bo'lgan Tarmoq Quyosh stansiyasi sotib olish 6 kVt quvvatdagi tarmoq Quyosh elektr stansiyasi Quyosh energiyasini elektr energiyasiga aylantiradi va elektr energiyasi iste'molchilariga uzatadi. Ishlab chiqarilgan elektr energiyasi akkumulyasiya qilinmasdan to'g'ridan-to'g'ri elektr iste'molchilariga uzatiladi. Ushbu-turdagi Quyosh elektr stansiyalari shahar tuman elektr tarmog'i bilan parallel ravishda ishlaydi. 1 ta maktabga komplekt sotib olinadi. 1 komplekt quyosh elektr stansiyasi tarkibiga quyidagilar kiradi Солнечная фотоэлектрическая станция ФЭС-6кВт, Преобразует солнечную энергию в электричество в комплекте солнечная панель(моно кристаллические) - 10 шт (мощность одного панела 540 Ватт), Сечение кабеля 4 мм многожильный медный, Инвертор (Солнечный генератор Инвертор) 6 kW 48V – 1шт ЩИТ и другие аксессуары. Доставка и установка 5та 100 ватт ko'cha chiroqlari o'rnatib berish

Maxsulotlar quyidagi assortimentda yoki spetsifikatsiyaga asosan yetkazib beriladi

| № | Maxsulot nomi  | Ulchov birligi | miqdori | narxi      | summasi    |
|---|--|----------------|---------|------------|------------|
| 1 | Quvasoy shahar XTBga qarashli 23-maktabga Quvvati 5.0-8.0 kVt bo'lgan Tarmoq Quyosh stansiyasi sotib olish | Kopm           | 1       | 69 500 000 | 69500000   |
|   | jami   |                |         |            | 69 500 000 |

Tovarlarning shartnomaviy 69 500 000 (oltmish to'qqiz million besh yuz ming sum) umumiy baxosi

#### 2.XISOB-KITOB QILISH TARTIBI

2.1. «Sotib oluvchi» maxsulot uchun oldindan 30 % miqdorida avans to'lovini shartnoma imzolangandan so'ng 3(uch) kun, xamda to'liq xisob-kitobni 10\_(o'n) kun ichida pul o'tkazish yo'li bilan to'lovni amalga oshiradi.

2.2. «Yetkazib beruvchi» maxsulotni etkazib bergandan so'ng, xisobvaraqa-fakturalariga asosan etkazib berilagn maxsulot qiymati uchun 70% «Sotib oluvchi» pul o'tkazish yo'li bilan to'lovni amalga oshiradi.

2.3. Maxsulotlar uchun narx o'zaro kelishilgan xolda belgilanadi. Agar Davlat nazorat organlari tomonidan o'tkazilgan tekshirish va taftish ishlari natijasida etkazib berilgan maxsulotlariga belgilangan narxlar yuqori deb topilsa, ushbu farq «Yetkazib beruvchi» zimmasidan qoplanadi.

2.4. Ishlab chiqaruvchilar uchun maxsulotning kalkulyasiyasi va baxolar preyskuranti asosida narx belgilanadi.

2.5. Narx-navolarning o'zgarishi, eng kam oylik ish xaqining ko'tarilishi yoki kamayishi, pulning qadrsizlanishi oqibatida shartnoma qiymati «Etkazib beruvchi» tomonidan qayta ko'rib chiqiladi va «Sotib oluvchi» tomonidan yangi narxlar bo'yicha xisob-kitob ishlari amalga oshiriladi.

### 3. TOVAR YETKAZIB BERISH MUDDATI

3.1. «Yetkazib beruvchi» mazkur shartnoma qonuniy kuchga kirgandan so'ng tovarni 30 (o'ttiz) kun muddat ichida «Sotib oluvchi» manzilgoxiga etkazib beradi va transport xarajatlarini o'z zimmasiga oladi.

### 4. TOMONLARNING MAJBURIYATLARI

4.1. «Yetkazib beruvchi» «Sotib oluvchi»ning vakiliga, muassasa rahbari va bosh xisobchi tomonidan imzolangan xamda yumoloq muxr bosilgan ishonch qog'ozi ko'rsatilgandan sung maxsulot beradi.

4.2. «Yetkazib beruvchi» maxsulot sifati va miqdoriga to'liq kafolat beradi.

4.3. «Sotib oluvchi» shartnomada ko'rsatilgan maxsulotni sifati, navi va kategoriyasi talabga javob bergan xolatdagina uni qabul qilib oladi.

4.4. «Sotib oluvchi» qabul qilib olgan maxsulotni shartnoma talablariga nomuvofiqligini aniqlagan xolda «Yetkazib beruvchi»ga yozma dalolatnoma yuboradi, xamda sifatsiz deb topilgan maxsulotni «Yetkazib beruvchi»ga qaytarib beradi.

4.5. «Yetkazib beruvchi» «Sotib oluvchi»ga uning ishonch kogosida kayd kilingan mahsulotlarni beradi. Agar «Yetkazib beruvchi» tomonidan «Sotib oluvchi»ning ishonch kog'ozida ko'rsatilmagan mahsulotlarni, yoki maxsulotlarni ishonch qog'ozida belgilangan miqdoridan ortiq bergan xollarda, bu maxsulotlar uchun «Sotib oluvchi» tomonidan qaytarib beriladi yoki bu mahsulotlar uchun xaq to'lanmaydi.

4.6. «Yetkazib beruvchi» tomonidan «Sotib oluvchi»ga sifatsiz maxsulotlar etkazib berilsa, bu maxsulotlar «Etkazib beruvchi»ga qaytarib beriladi yoki bu maxsulotlar uchun xak tulanmaydi.

4.7. «Yetkazib beruvchi» etkazib bergan mahsulotlarni xisob varaqlarda to'liq va aniq nomini, maxsulot navini, kategoriyasini va boshqa ko'rsatkichlarini ko'rsatishi, shuningdek, xisob – varaqlarni belgilangan tartibda raqamlab, to'liq rasmiylashtirilishi shart. To'liq rasmiylashtirilmagan xamda maxsulotning sifati, navi va kategoriyalari ko'rsatilmagan xisob- varaqlar bo'yicha to'lov amalga oshirilmaydi.

### 5. MULKIY JAVOBGARLIGI

5.1. Agar «Yetkazib beruvchi» tomonidan «Sotib oluvchi»ga sifatsiz, yoki saqlash muddatlari o'tib ketgan maxsulotlarni etkazib berilgan xolda «Sotib oluvchi» «Yetkazib beruvchi»dan bunday

maxsulotlarni umumiy qiymati 20% jarima qo'llab, qonunchilikda belgilangan tartibda undirib olinadi.

5.2. Agar «Yetkazib beruvchi» tomonidan «Sotib oluvchi»ga belgilangan maxsulotlar belgilangan muddatlarda etkazib berilmasa, «Yetkazib beruvchi» muddati o'tgan xar bir Kun uchun kechiktirilmagan maxsulot qiymatining 0,5% miqdorida lekin kechiktirilgan maxsulot kiymatining 50% dan oshmagan xolda «Sotib oluvchi»ga penya to'laydi.

5.3. Agar «Sotib oluvchi» «Yetkazib beruvchi»dan olingan maxsulot pulini belgilangan muddatda to'lab bermasa, muddati o'tgan xar bir kun uchun kechiktirilgan summaning 0,4% miqdorida, lekin kechiktirilgan to'lovning 50% oshmagan miqdorda penya to'laydi.

5.4. Jarimalar to'lanishi «Yetkazib beruvchi»ni shartnomada belgilangan majburiyatlarini bajarishdan ozod etmaydi.

### 6. FORS – MAJOR XOLATLAR

6.1. Shartnoma tuzilgandan so'ng tabiiy ofatlar (er qimirlashi, suv toshqini, yong'in, epidemiya), urush, xukumatning normativ – xuquqiy xujjati, tomonlarni xoxishidan qa'tiy nazar bajara olmaydigan xolatlar vujudga kalgan taqdirda shartnomaning vazifalari bajarilmasa ikki taraf xam javobgar bo'lmaydi.

### 7. SHARTNOMA MUDDATI

7.1. Shartnoma «Fuqarolik kodeksi»ning 366-moddasida ko'rsatilgan talablar bajarilganda va ikkala tomonlar imzolangandan so'ng kuchga kiradi.

7.2. Shartnomaning amal qilish muddati 2022-yil « » sentyabr 2022 yil « 31 » dekabr.

7.3. Shartnoma tomonlar kelishuviga asosan, «Yetkazib beruvchi» tomonidan etkazib berilgan maxsulot «Sotib oluvchi» tomonidan sifatsiz deb topilganda va «Yetkazib beruvchi» tomonidan mazkur shartnomaning 4.1, 4.2, 4.3, - bandlari bajarilmaganda shartnoma «Sotib oluvchi» tomonidan bir tomonlama bekor qilinishi mumkin. Bekor qilinganligi to'g'risida «Sotib oluvchi» «Yetkazib beruvchi»ga yozma ravishda, asoslarini keltirgan xat bilan ma'lum qiladi.

## 8. QO'SHIMCHA SHARTLAR

8.1. Shartnoma yuzasidan kelib chiqqan nizolar o'zaro xal qilinadi. Agar o'zaro xal qilinmagan taqdirda O'zbekiston Respublikasi qonunlarigi asosan Iqtisodiy sudlari orqali xal qilinadi.

8.2. Shartnoma ikki nusxada tuzilib, xar bir nusxa teng yuridik kuchga ega bo'lib tomonlarda bir nusxadan saqlanadi.

8.3. Shartnomaga barcha o'zgartirishlar ikkala tomonlama kelishilgan va shartnoma qo'shimcha bitim imzolaniy YUXK markazi tomonidan ko'rib chiqilgandan so'ng qonuniy deb xisoblanadi.

8.4. Shartnoma ikki tomonlama-imzolaniy G'aznachilik boshqarmalari (bo'lim)da ro'yxatdan o'tkazilgandan so'ng qonuniy kuchga kiradi.

## 9. TOMONLARNING MANZILLARI VA REKVIZITLARI

«Etkazib beruvchi»  
Maxsus Energetik Aloqa  
MCHJ

Manzil: Farg'ona viloyati  
Farg'ona sh.  
Xr: 20208000300662752001

INN: 304296396

MFO:00401

Aloqabank Farg'ona filiali

Raxbar:  
Isakov A.A.



«Sotib oluvchi»  
Quvasoy shahar XTB

(byudjetdan mablag' oluvchining nomi)

Manzil : Mustaqillik ko'chasi 34-  
uy

sh/h\*  
100022860304087092100075035

byudjetdan mablag' oluvchi STIRI:  
200 123 030

G'aznachilik bo'linmasi nomi

G'azna h/v 23402000300100001010

Bankning nomi Toshkent shahar  
Markaziy bank

MFO 00014

g'aznachilik bo'linmasi STIRI  
201122919

Rahbar

K.Jadigarov  
(lavozim)



Hujjat elektron raqamli imzo orqali imzolangan.  
Elektron raqamli imzoning haqiqiyiligini tekshirish uchun QR  
Code ni skanerlang.





«ТАСДИҚЛАЙМАН»  
Куввасой шаҳар халқ таълим  
бўлими раҳбари в.б  
\_\_\_\_\_ К.Жадигаров

12.10.2022 йил

Куввасой шаҳри

Куввасой шаҳар халқ таълим бўлимига карашли 23-сонли мактабига Қуввати 5.0-8.0 кВт бўлган тармоқ қуёш станцияси сотиб олиш, ишга тушириш хизматлари билан бирга техник хизмат кўрсатиш ишлари учун №150418 лот рақамли эълоннинг 04.10.2022 йил кунги электрон баённомаси муҳокама натижалари тўғрисидаги харид комиссиясининг тегишли мажлиси

### БАЁННОМА ХУЛОСАСИ

1. Куввасой шаҳар 23-сонли мактабига Қуввати 5.0-8.0 кВт бўлган тармоқ қуёш станцияси сотиб олиш, ишга тушириш хизматлари билан бирга техник хизмат кўрсатиш ишлари учун бюджетдан ажратилган маблағлар ҳисоби ва харажатларнинг иктисодий таснифи бўйича мос келади.
2. Куввасой шаҳар 23-сонли мактабига Қуввати 5.0-8.0 кВт бўлган тармоқ қуёш станцияси сотиб олиш, ишга тушириш хизматлари билан бирга техник хизмат кўрсатиш ишлари юзасидан 04.10.2022 йил куни тузилган харид комиссиясининг электрон баённомаси йўлланган тижорат таклифларни баҳолаш асосида тузилган.
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 22 апрелдаги “Давлат харидлари тўғрисида”ги (ЎРҚ-684-сон) Қонуннинг 7-боб 62-моддасининг 3 ва 7-бандларига асосан [etender.uzex.uz](http://etender.uzex.uz) махсус ахборот порталидаги 04.10.2022 йил куни тузилган харид комиссияси электрон баённомасининг 2 кунлик муҳокама вақтида ҳеч қандай эътирозлар келиб тушмаганлиги сабабли электрон баённомада қолиб деб топилган “Maxsus Energetik Aloqa” МЧЖ билан белгиланган тартибда 69 500 000 (Олтмиш тўққиз миллион беш юз минг) сўмлик шартнома тузилсин.

Комиссия аъзолари:

М.Аметов \_\_\_\_\_

У.Гиёева \_\_\_\_\_

Г.Муминова \_\_\_\_\_

Ғ.Мирзамуратов \_\_\_\_\_

Котиба:

Н.Мансурова \_\_\_\_\_